



AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASH VA TADBIRKORLIK  
FAOLIYATIGA JALB QILISH MEXANIZMLARI

**Julibekova Muhayyo Nurmatovna**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchisi

Tel: +998 97 760-12-19

E-pochta: [muhayyo2712@gmail.com](mailto:muhayyo2712@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ayollar bandligini ta'minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishning dolzarb masalalari yoritilgan. Ayollarning mehnat bozoridagi o'ri, mavjud muammolar va ularni hal etish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, davlat tomonidan ayollarni qo'llab-quvvatlash siyosati, qonunchilik asoslari va amaliy dasturlar ko'rib chiqilgan.. Maqolada xorijiy tajribalar bilan birga O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar misolida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga doir tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ayollar bandligi, tadbirkorlik, iqtisodiy faollik, gender tengligi, mehnat bozori, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, davlat dasturlari

**Abstract:** This article highlights the pressing issues of ensuring women's employment and involving them in entrepreneurial activities. It analyzes the role of women in the labor market, existing problems, and the mechanisms for solving them. The paper also examines the state policies supporting women, legal frameworks, and practical



programs. Recommendations are provided for the development of female entrepreneurship, based on both international experience and ongoing reforms in Uzbekistan.

**Keywords:** women's employment, entrepreneurship, economic activity, gender equality, labor market, social support, government programs

**Аннотация:** В данной статье освещаются актуальные вопросы обеспечения занятости женщин и их вовлечения в предпринимательскую деятельность. Проанализированы роль женщин на рынке труда, существующие проблемы и механизмы их решения. Также рассмотрены государственная политика поддержки женщин, законодательные основы и практические программы. В статье даны рекомендации по развитию женского предпринимательства на примере проводимых в Узбекистане реформ, а также с учётом международного опыта.

**Ключевые слова:** занятость женщин, предпринимательство, экономическая активность, гендерное равенство, рынок труда, социальная поддержка, государственные программы

## **Kirish.**

## **Mavzuning dolzarbligi.**

So'nggi yillarda dunyo miqyosida gender tengligini ta'minlash, ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy faolligini oshirish, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasida tub o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT, Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan olib borilayotgan dasturlar va tashabbuslar natijasida ayollar bandligini ta'minlash global miqyosda ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan. Ushbu xalqaro tendensiyalar O'zbekiston Respublikasi uchun ham dolzarb bo'lib,



mamlakatda gender tengligini ta'minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotdagi o'rnini mustahkamlash borasida izchil islohotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, oxirgi yillarda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ushbu sohadagi davlat siyosatini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori<sup>1</sup> va 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni<sup>2</sup> ayollarni qo'llab-quvvatlashning institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamladi. Mazkur hujjatlar xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka jalb etish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan muhim choralarni belgilab berdi. Shu sababli, ayollarni iqtisodiy faoliyatga keng jalb etish, ularga munosib mehnat sharoitlarini yaratish va tadbirkorlik faoliyatida qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ilmiy jihatdan o'rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri deb hisoblaymiz..

**Tahlil va natijalar.** So'nggi yillarda O'zbekiston mehnat bozorida ayollarning ishtiroki sezilarli darajada ortib bormoqda. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ayollar faolligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil holatiga respublika bo'yicha iqtisodiy faol aholi sonining qariyb 46 foizini ayollar tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 3–4 foiz bandlik o'sishini aks ettiradi. Shuningdek, ayollar asosan xizmat ko'rsatish sohasida (ta'lim, sog'liqni saqlash, savdo) faoliyat yuritayotgan bo'lib, bu ularning iqtisodiyotdagi qatnashuvining sektorlar bo'yicha notekis taqsimlanganini ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi sohasida ham ayollar bandligi yuqori bo'lsa-da, ularning

<sup>1</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-5320582>

<sup>2</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-5899498>



aksariyati norasmiy mehnat bilan shugʻullanishadi, bu esa ijtimoiy himoya va huquqiy kafolatlar darajasining pastligiga olib keladi. Hududiy kesimda olib borilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, Toshkent shahri, Samarqand, Fargʻona va Andijon viloyatlarida ayollar bandligi nisbatan yuqori, bu esa hududiy iqtisodiy faollik darajasiga toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻliq. Biroq, ayrim chekka hududlarda ayollar bandligi keskin past boʻlib qolmoqda. Bu holat, bir tomondan, infratuzilmaning rivojlanmaganligi, ikkinchi tomondan, anʼanaviy gender stereotiplari bilan izohlanadi. Yana bir muhim jihat — ayollar orasida ishsizlik darajasi erkaklarga nisbatan yuqoriligicha qolmoqda. Jumladan, 2023-yilda umumiy ishsizlik darajasi 8,6 foizni tashkil etgan boʻlsa, ayollar orasida bu koʻrsatkich 10,1 foiz atrofida boʻlgan.<sup>3</sup> Bu raqamlar ayollarni mehnat bozoriga kirib kelishida hanuz muayyan toʻsiqlar mavjudligini koʻrsatadi. Yuqoridagi statistik tahlil shuni koʻrsatmoqdaki, ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini oshirish uchun kompleks yondashuv zarur. Bu yondashuv nafaqat bandlikni taʼminlash, balki rasmiy ish oʻrinlari yaratish, kasbga yoʻnaltirish, malaka oshirish va ijtimoiy himoya mexanizmlarini mustahkamlashni ham oʻz ichiga olishi lozim.

Oʻzbekistonda tadbirkorlik sohasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar ayollar iqtisodiy faolligining oshishiga bevosita taʼsir koʻrsatmoqda. Ayollar tomonidan tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni yildan-yilga ortib bormoqda. Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlariga koʻra, 2023-yil holatiga koʻra kichik tadbirkorlik subyektlarining qariyb 26 foizi ayollar tomonidan boshqarilmoqda. Bu koʻrsatkich soʻnggi besh yillikda ijobiy oʻsish surʼatlarini namoyon etmoqda. Ayniqsa, xizmat koʻrsatish, savdo, tikuvchilik, goʻzallik salonlari, ovqatlanish shoxobchalari kabi yoʻnalishlarda ayollar faolligi yuqori. Ayollar tadbirkorligini qoʻllab-quvvatlashda davlat siyosatining muhim yoʻnalishlaridan biri sifatida “Ayollar daftari” tizimi samarali faoliyat yuritmoqda. Ushbu tizim orqali tadbirkorlik bilan shugʻullanish istagida boʻlgan, ammo moliyaviy imkoniyati cheklangan minglab ayollar

<sup>3</sup>[https://uza.uz/oz/posts/2030-yilga-qadar-gender-tenglikka-erishish-strategiyasining-istiqboldagi-maqsadlari-qanday\\_421926](https://uza.uz/oz/posts/2030-yilga-qadar-gender-tenglikka-erishish-strategiyasining-istiqboldagi-maqsadlari-qanday_421926)



imtiyozli kredit, grant va subsidiya asosida qo'llab-quvvatlanmoqda. 2022–2023-yillar davomida ushbu dasturlar doirasida 200 mingdan ortiq ayol o'z biznesini boshlagan yoki kengaytirgan.<sup>4</sup> Bundan tashqari, ayollar uchun maxsus o'quv kurslari, kasbga tayyorlash va malaka oshirish dasturlarining soni ortmoqda. Bu esa ularning bozorga mos, raqobatbardosh biznes yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Biroq, mavjud yutuqlarga qaramay, ayollar tadbirkorligi hali ham muayyan to'siqlar va tizimli muammolar bilan to'qnash kelmoqda. Xususan, ayollar ko'pincha moliyaviy resurslarga kirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Garov ta'minoti, kredit tarixining mavjud emasligi yoki noaniqligi, rasmiy daromad hujjatlarining yetishmasligi ayollarning bank-moliya tizimi bilan samarali aloqasini cheklaydi. Bundan tashqari, tadbirkorlik yuritish uchun zarur bo'lgan huquqiy bilim, soliq masalalari va menejment ko'nikmalarining yetarli emasligi ham muhim omil hisoblanadi. Yana bir muhim omil — jamiyatda ayollarning faqatgina uy-ro'zg'or ishlari bilan shug'ullanishi kerak degan stereotiplarning saqlanib qolayotgani. Bu holat ko'plab iqtidorli va faol ayollarning o'z salohiyatini to'liq namoyon etishiga to'sqinlik qilmoqda. Ayni paytda, tadbirkor ayollar tomonidan boshqarilayotgan subyektlarning muayyan qismi norasmiy faoliyat yuritayotgan bo'lib, bu ularni huquqiy va moliyaviy himoyadan mahrum etadi. Shunday ekan, ayollar tadbirkorligini yanada rivojlantirish uchun kompleks va tizimli yondashuv zarur. Bu, bir tomondan, mavjud dasturlarni chuqurlashtirish va moliyaviy resurslarga kirishni yengillashtirishni, ikkinchi tomondan, ayollar uchun tadbirkorlik muhitini soddalashtirish, rasmiylashtirish tartiblarini optimallashtirish hamda ijtimoiy stereotiplarni bartaraf etish bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy ishlarga ehtiyoj borligini anglatadi.

O'zbekistonda ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishda qo'llanilayotgan mexanizmlar kompleks va bosqichma-bosqich shakllangan bo'lib, ular huquqiy, institutsional va moliyaviy choralarni o'z ichiga oladi. Ushbu mexanizmlar davlat

<sup>4</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/band-bo-lmagan-aholini-munosib-ish-o-rinlariga-joylashtirishning-iqtisodiy-mexanizmlari-1>



siyosatining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. 2021-yil 6-martdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror, shuningdek 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon asosida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun muhim asoslar yaratildi. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning asosiy shakllari — imtiyozli kreditlar, subsidiya va grantlar — ayollarga kichik biznes tashkil etish yoki mavjud faoliyatini kengaytirish imkonini bermoqda. Jumladan, “Har bir oila – tadbirkor” dasturi doirasida minglab ayollarga 4-7 foizli yillik stavkada kreditlar ajratildi. Shuningdek, tijorat banklari tomonidan ayollarga maxsus kredit liniyalari ochilmoqda, lekin bu imkoniyatlardan foydalanish darajasi hududlar kesimida turlicha. Ta’lim va malaka oshirish mexanizmlari ham ayollarni tadbirkorlikka tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. “Ishbilarmon ayol” jamg‘armasi, Savdo-sanoat palatasi, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi va boshqa tashkilotlar tomonidan muntazam ravishda tadbirkor ayollar uchun trening, seminar va konsultatsiyalar tashkil etilmoqda.<sup>5</sup> Biroq bu faoliyatlar hanuz ko‘proq shahar va markaziy hududlarda samarali kechmoqda, chekka qishloq va mahallalarda esa ayollar uchun amaliy yordam va axborot yetkazib berish darajasi pastligicha qolmoqda. Shuningdek, huquqiy mexanizmlar ham muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda ayollarning mulk huquqlarini ta’minlash, soliq imtiyozlari berish, litsenziyalash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartiblarini soddalashtirish borasida muhim qadamlar qo‘yildi. Ammo amaliyotda byurokratik to‘siqlar, axborot yetishmasligi, korrupsion holatlar ayrim ayollarning ishonchini pasaytirayotganini inkor etib bo‘lmaydi.

Ayollar bandligini ta’minlash va ularni tadbirkorlikka jalb etish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar ijobiy natijalar bermoqda. Davlat tomonidan ko‘rilayotgan tizimli

<sup>5</sup> <https://yuz.uz/uz/news/xotin-qizlarni-qollab-quvvatlash-ularning-jamiyat-hayotidagi-faol-ishtirokini-taminlash-tizimini-yanada-takomillashtirish-chora-tadbirlari-togrisida>



chora-tadbirlar, huquqiy asoslarning mustahkamlanishi, moliyaviy va tashkiliy qo'llab-quvvatlash vositalari ayollar iqtisodiy faolligining oshishiga xizmat qilmoqda. Ayollar tadbirkorligi sohasida yildan-yilga o'sish kuzatilayotgani bu boradagi siyosat va amaliy mexanizmlarning samaradorligini ko'rsatadi. Shunga qaramay, ayrim hududlarda resurslarga kirish imkoniyati, axborot yetishmovchiligi, moliyaviy savodxonlikning past darajasi va ijtimoiy stereotiplar ayollarning tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishiga to'sqinlik qilmoqda. Mavjud mexanizmlar aksariyat hollarda markaziy shaharlarda samarali ishlayotgani, chekka hududlarda esa ishtirok va qamrov darajasi pastligi kuzatilmoqda. Shu bois, bu yo'nalishda ishlarni yanada chuqurlashtirish va hududiy tenglikni ta'minlash muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi jadval ishlab chiqildi.

**Ayollar tadbirkorligi yo'lida uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish  
bo'yicha tavsiyalar. 1-jadval<sup>6</sup>**

| Muammo                                             | Muammoning tavsifi                                                                                                         | Yechim (tavsiya)                                                                                                           |
|----------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Moliyaviy resurslardan foydalanishdagi murakkablik | Ayollar imtiyozli kreditlar, grantlar va boshqa moliyaviy vositalardan foydalanishda byurokratik to'siqlarga duch kelmoqda | Moliyaviy xizmatlarni soddalashtirish, onlayn ariza topshirish tizimini joriy qilish va jarayonning shaffofligini oshirish |
| Chekka hududlarda ta'lim va ko'nikma yetishmasligi | Qishloq va olis hududlardagi ayollar tadbirkorlik bo'yicha yetarli bilim va malakaga ega emas                              | Mobil o'quv markazlari tashkil etish, bepul trening va masofaviy o'qitish dasturlarini kengaytirish                        |
| Axborot                                            | Ayollar tadbirkorlik uchun mavjud                                                                                          | Axborot platformalari yaratish,                                                                                            |

<sup>6</sup> Muallif ishlanmasi





|                                                      |                                                                                                       |                                                                                                                                          |
|------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| yetishmovchiligi                                     | imkoniyatlar haqida kam xabardor                                                                      | mahallalarda maslahat markazlarini ochish va OAV orqali doimiy targ'ibot olib borish                                                     |
| Huquqiy va ruxsat olish jarayonlarining murakkabligi | Ro'yxatdan o'tish, litsenziya olish va soliq tartiblari ayollar uchun murakkab va vaqt talab qiluvchi | Ruxsatnomalar olish jarayonini raqamlashtirish va byurokratik to'siqlarni qisqartirish, yuridik maslahatlar berish tizimini kengaytirish |
| Ijtimoiy stereotiplar va gender cheklovlari          | Jamiyatda ayol tadbirkorga nisbatan salbiy qarashlar mavjud, bu ularning faolligiga ta'sir qiladi     | Tadbirkor ayol obrazini targ'ib qilish, ijtimoiy kampaniyalar o'tkazish va gender tengligi bo'yicha ta'lim berish                        |

Yuqoridagi jadvalda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda duch kelinayotgan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha zarur tavsiyalar bayon qilindi. Bu muammolar faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy omillar bilan ham chambarchas bog'liq. Ayniqsa, resurslardan foydalanish, bilim va ko'nikmalar yetishmasligi, axborotdan xabardorlik darajasi pastligi kabi masalalar tizimli yondashuvni talab etadi. Shu boisdan, ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishdagi har bir mexanizm o'zaro uzviy bog'langan bo'lishi kerak. Davlat siyosatini mahalliy darajadagi tashabbuslar bilan uyg'unlashtirish, xotin-qizlar orasida tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish, ularni iqtisodiy, huquqiy va axborot jihatdan qo'llab-quvvatlash — bu yo'nalishdagi eng muhim ustuvorliklar sirasiga kiradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mavjud muammolarning aksariyati samarali boshqaruv, aholining real ehtiyojlarini hisobga olgan dasturlar va gender tengligiga asoslangan yondashuv orqali hal etilishi mumkin. Bu esa nafaqat ayollar bandligining





ortishiga, balki butun jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ayollarni iqtisodiy faoliyatga keng jalb etishda innovatsion yondashuvlar va barqaror mexanizmlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayollar uchun mo'ljallangan maxsus inkubatsiya markazlari, mentorlik dasturlari, startap loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan grant tizimlari — ularning biznes boshlash va uni yuritishda duch keladigan asosiy muammolarini bartaraf etish vositasi bo'la oladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha strategiyalar nafaqat iqtisodiy yordam bilan, balki madaniy, ijtimoiy va psixologik omillarni ham hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida gender tengligi indikatorlari asosida soliq va kredit siyosati yuritiladi, Kanada, Avstraliya va Skandinaviya davlatlarida esa ayollar uchun mo'ljallangan maxsus biznes-kampuslar mavjud.<sup>7</sup> Bunday tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali ayollar salohiyatidan to'liq foydalanish mumkin. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda boshlangan islohotlarni chuqurlashtirish, ayollar ishtirokini iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kengaytirish, xususan, texnologik va eksportga yo'naltirilgan sohalarda ularning ulushini oshirish maqsadga muvofiqdir. Bunda mahalliy boshqaruv organlarining mas'uliyatini oshirish, genderga sezgir byudjetlashtirishni amaliyotga joriy qilish, xotin-qizlar manfaatlarini ifodalovchi nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish zarur. Aholining iqtisodiy faolligini ta'minlashda ayollar guruhining roli tobora ortib borayotgan bir paytda, bu masalaga yuzaki emas, balki strategik nuqtai nazardan yondashish dolzarbdir. Ayollar iqtisodiy faol bo'lgan jamiyatlar ko'proq barqaror, ijtimoiy adolatli va innovatsion bo'lishi isbotlangan ilmiy natijalardan biridir. Shu sababli, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash nafaqat bir ijtimoiy siyosat bo'lagi, balki milliy taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismiga aylanishi lozim. Aks holda, mavjud salohiyat to'liq safarbar qilinmaydi va

<sup>7</sup> UN Women. "Women's Entrepreneurship Development (WED) Framework". – United Nations, 2022. – <https://www.unwomen.org>



mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi past bo‘lib qoladi. Shu nuqtai nazardan, ayollarni iqtisodiyotga integratsiya qilishga doir har bir tashabbus va islohot tizimli, o‘lchab baholanuvchi va xalqaro standartlarga mos bo‘lishi zarur. Bu esa mamlakatning barqaror rivojlanishiga, ijtimoiy tenglikning ta‘minlanishiga va gender tafovutlarining kamayishiga olib keladi.

**Xulosa va takliflar.** O‘zbekistonda ayollar bandligini ta‘minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib bormoqda. So‘nggi yillarda bu borada qator muhim qarorlar va farmonlar qabul qilindi, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar amalga oshirildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayollar mehnat bozorida to‘liq ishtirok eta olmasliklariga turli to‘siqlar — ijtimoiy stereotiplar, moliyaviy resurslarga kirishdagi cheklovlar, axborot va huquqiy savodxonlik darajasining pastligi sabab bo‘lmoqda. Mazkur tadqiqot asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish uchun ularning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Buning uchun ayollarga mo‘ljallangan imtiyozli kredit liniyalari, davlat kafilligi asosidagi mikromoliyalashtirish dasturlari va grant mexanizmlari amaliyotga joriy etilishi lozim.

Ikkinchidan, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘quv, maslahat va mentorlash infratuzilmasi yaratilishi kerak. Ayniqsa, hududiy darajada tadbirkor ayollar uchun inkubatsiya markazlari va tajriba almashish platformalarini tashkil etish muhim.

Uchinchidan, gender tengligi tamoyillarini iqtisodiy siyosatga chuqur integratsiya qilish zarur. Davlat byudjetini genderga sezgir shakllantirish, iqtisodiy dasturlarni baholashda xotin-qizlar manfaatlarini hisobga olish mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.



To'rtinchidan, tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish va ijtimoiy stereotiplarni bartaraf etish bo'yicha ommaviy axborot vositalari, ta'lim tizimi va mahalliy fuqarolik jamiyati institutlari orqali keng ko'lamli targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilishi kerak.

Beshinchidan, xalqaro tajribalarni tahlil qilgan holda, ijtimoiy tadbirkorlik, ayollar kooperatsiyasi, klaster tizimi va boshqa zamonaviy modellarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirib joriy etish lozim.

Oltinchidan, ayollarni qo'llab-quvvatlashda davlat va xususiy sektor o'rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirish, xususan, ayollarning biznes faoliyatini rag'batlantiruvchi soliq yengilliklari va muhofaza mexanizmlarini takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.03.2021-yildagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.03.2022-yildagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari. – <https://stat.uz>
4. UN Women. "Women's Entrepreneurship Development (WED) Framework". – United Nations, 2022. – <https://www.unwomen.org>
5. International Labour Organization (ILO). "Women in Business and Management: The business case for change". – Geneva, 2019. – <https://www.ilo.org>



6. Karimova M. A., “Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirishda gender yondashuvning o‘rni”. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2023. – №2. – B. 112–118.
7. OECD (2021). “Entrepreneurship Policies through a Gender Lens”. – OECD Publishing. – <https://www.oecd.org>
8. Abdullayeva G. Sh. “Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda davlat qo‘llab-quvvatlovining institutsional asoslari”. // “Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot: muammolar va istiqbollar” ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022. – B. 57–62.
9. World Bank. “Women, Business and the Law 2024”. – Washington, DC: World Bank Group. – <https://wbl.worldbank.org>